

**TOHIR MALIK ASARLARIDA EGASI UMUMLASHGAN VA SHAXSI
NOMA'LUM GAPLARNING LINGVISTIK TAHLILI**

("Murdalar gapirmaydi" asari talqinida)

Abdurahmonova Gulorom Iskandar qizi

Termiz davlat universiteti 2 - bosqich talabasi

Choriyeva Laziza Anvar qizi

Termiz davlat universiteti 2 - bosqich talabasi

Annotatsiya

Maqolada iste'dodli yozuvchi Tohir Malikning "Murdalar gapirmaydi" qissasi tahlilida uchraydigan egasi umumlashgan va shaxsi noma'lum bo'lgan gaplarning lingvistik tahlili bilan birgalikda ushbu gaplarning ma'nolari kabi bir qancha masalalar xususi bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: egasi umumlashgan, shaxsi noma'lum, lingvistik tahlil.

Annotation

The article describes a number of issues, such as the meanings of these sentences, together with the linguistic analysis of the generalized and unidentified sentences found in the analysis of the story "The dead do not speak" by the talented writer Tahir Malik.

Keywords: owner generalized, personally unknown, linguistic analysis.

KIRISH

Kesimi fe'l bilan ifodalanib, umumga qaratilgan bir bosh bo'lakli gap shaxsi umumlashgan gap deyiladi. Bunday gaplarda hayotiy xulosalar, tajribalar, umumiy qoidalar, umumlashgan mulohazalar ifodalanadi. Kesimi ko'pincha buyruq-istak maylining 2-shaxs shakli bilan ifodalanadi. Maqollar ko'pincha shaxsi umumlashgan gap shaklida bo'ladi.

Masalan: Bilmagani ishga urinma, urinib tuzoqqa ilinma (maqol).

Shaxsi noma'lum gaplar esa ularda ham kesim fe'l bilan ifodalanadi. Ish-harakatni bajarishga imkoniyat, zarurat, shart, tilak, istak kabi ma'nolarni ifodalab keladi. Bunday gaplar kesimining eng muhim belgisi-uning tarkibida egalik qo'shimchasining yo'qligidir. Bu gaplar shaxssiz emas, harakatni mantiqan kimdir bajaradi, lekin uni gapda ifodalab bo'lmaydi.

Masalan: Hovlini doimo supurish, idish-tovoqlarni esa yuvib qo'yish kerak.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Quyida ushbu ikki turfa oid bo'lgan misollar keltiriladi.

- 1."Yaxshi buzoq ikki onani emadi"("Kundoshlar"qismi.22-bet).Shaxsi umumlashgan gap.Maqlol shaklida va gapning mazmuni barcha shaxslarga aloqador.
- 2.Birini "qonuniy prezident",deydilar.Halolmi,g'irrom yo bilanmi-har holda saylanadi("Kundoshlar"qismi.22-bet).Ushbu gap shaxssiz emas,harakatni mantiqan kimdir bajaradi,ammo uni gapda ifodalab bo'lmaydi.
- 3."Ko'rmaganning ko'rgani qursin"("Ajir"qismi.82-bet).Bu gap shaxsi umumlashgan gapga misol bo'la oladi.Negaki,ushbu gapning mazmunida barcha shaxslarga tegishlilik mavjud.
- 4."Ot bosgan joyni toy bosadi"("Ajir"qismi.83-bet).Xalq og'zida naql bo'lgan ushbu gap ham ayni shaxsi umumlashgan gapga misol tariqasida qaraladi.Bunda ham barcha shaxslarga nisbat berilgan holatda keltirilgan.
- 5."Qo'shning yomon bo'lsa,ko'chib qutilasan,xotining yomon bo'lsa,kuyib qutilasan"("Ajir"qismi.84-bet).Maqlol shaxsi umumlashgan gap shaklida,bunda ham barcha shaxslarga tegishlilik yuzaga chiqqan.
- 6."Unda borib mayitni olib kelish kerak,dafn etish kerak,-degan taklifni aytdi("Ajir"qismi.87-bet).Harakat nomi+kerak,

lozim,
shart,
darkor,
zarur,

mumkin=shaxsi noma'lum.Mazkur qolipga

tushuvchi barcha gaplar shaxsi noma'lum gap hisoblanadi.

- 7."Bu mol egalariga qaytarilishi kerak"("Ajir"qismi.89-bet).Keltirilgan misol ham xuddi yuqoridagi kabi

-sh

-ish+kerak,zarur,darkor,lozim,shart,mumkin qolipi asosida birlashgan,shuning uchun ham bu gapni shaxsi noma'lum gap qatoriga kiritamiz.

- 8."Qonun oldida hamma teng"deb katta ketdi.("Talvasa"qismi.143-bet).Ushbu jumlada hamma tengligi birligi haqida fikr yuritilgan.Hamda bu misolni shaxsi umumlashgan gap deyish mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki,mashhur yozuvchi Tohir Malikning "Murdalar gapirmaydi"asari tahlil olib borildi.Ushbu jarayonda qissada keltirilgan ayrim misollarning egasi umumlashgan hamda shaxsi noma'lum gap turlariga ajratildi va aniqlandi.Shaxsi noma'lum va etadi umumlashgan gaplar haqida ma'lumot berildi,asar yuzasidan tahlil qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tohir Malik. Murdalar gapirmaydi. 2019. T: Sharq. 544b.
2. Baxtiyor Mengliyev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. nash. Tafakkur bo'stoni. T. 2018
3. Ra'no Sayfullayeva. Hozirgi o'zbek adabiy tili. nash. Fan va texnologiya. T. 2009. 391b.
4. X. Nematov P. Rasulov. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. T. O'qituvchi. 1995.
5. www.ziyo.net.uz.
6. Ziyaqulova Maftuna Shuhrat qizi "Enhancing creativity in the process of developing studentso speech " The American Journal of Social Science and education Innovations (ISSN – 2689-100x) Published Published: June 28, 2021 | <https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume03Iccye06-24> IMPACT FACTOR 2021: 5. 857 OCLC – 1121105668 Pages: 140-143 Америка
7. Ziyaqulova Maftuna Shuhrat qizi The importance of riddles in the development of students creativity in the learning process Asian Journal of Multimensional Research (AJMR) <https://www.tarj.in> ISSN (ONLINE): 2278-4853 Impact Factor: SJIF 2021: 7.7. Global impact factor: 0.51810.
8. Ziyaqulova Maftuna Shuhrat qizi, Rakhmatova Hamida Ismatillo qizi, "Increasing Creativity by using Interactive methods in literacy teaching process" Analytical journal of education and development Science Box In Vol.1(2021): Analytical journal of education and development 52-54-betlar Тошкент
9. kizi, Z. M. S. . (2023). Technologies of Creative Approach to the Development of Speaking Competences of Primary Class Students. Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education, 2(4), 189–192. Retrieved from <http://univerpubl.com/index.php/semantic/article/view/1138>
10. Ziyaqulova, M., Ashurova, S., & Toshpulatova, N. (2023). BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING AQLIY SALOHIYATINI HAMDA KREATIVLIGINI OSHIRISHDA MENTAL ARIFMETIKANING O'RNI. Development and innovations in science, 2(3), 92-98.
11. Qizi, Z. M. S. (2021). Enhancing Creativity In The Process Of Developing Students' Speech. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(06), 140-143.
12. Qizi, Z. M. S. (2021). The importance of riddles in the development of students creativity in the learning process. Asian Journal Of Multidimensional Research, 10(6), 182-185.
13. Ziyaqulova, M. S. Q., & Xayitova, F. A. (2021). SAVOD O'RGATISH DARSLARIDA O'QUVCHILARNING KREATIV QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISHDA RASMLARNING O'RNI. Academic research in educational sciences, 2(7), 7-12.
14. Ziyaqulova, M. S. Q., & Raxmatova, H. I. Q. (2021). BOSHLANGICH SINF OQUVCHILARINING LUGATLAR BILAN ISHLASH JARAYONIDA KREATIVLIGINI OSHIRISH. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(4), 1503-1509.